

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA PSIXOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATI VA MUAMMOSI

**Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrası
o‘qituvchisi Yoqubalievá Dilafuz
Filologiya fakulteti 1-bosqich
talabasi Kaxramonova Maxzunaxon**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixik rivojlanishi haqida va hamda maktab yoshidagi bolalarni psixik muammolarni ularni psixikasi haqida.

Kalit so‘zlar: Bola, jarayon, til, faoliyat, rivojlanish, nutq maktabgacha, muloqot, harakat, o‘yin, faol, qiziqish.

Ontogenezda 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri deb hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida bola insoniyat qo‘lga kiritgan barchga yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda pretmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘zib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Bog‘cha yoshidagi bolalarga beriladigan beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mexnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Mashxur rus pedagogi Lestgafning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalar xarakter hislatlarining namunalarni shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bolatabiatiningasosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkalliligidan toliqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va xaddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan qiziqishning roli kattadir, qiziqishg xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatiga undovchi omillardan biridir. Ushbu 5-6 yoshli bolaning muammosi nutq faoliyati bilan bog‘liq. Odatda katta farzand yoki yakka, bitta farzandli oilalarda ushbu yoshda nutqida harflarni noto‘g‘ri aytish muammosi ko‘p uchraydi hayot jarayonimkizda. Misol uchun “R” harfini “y” harfi tarzida “K” harfini “T” harfi tarzida aytish holatlari mavjud. Ushbu holastni maktab yoshidagi bolada yuz bermasligi uchun erkalanib gapirish nutq faoliyati jarayonida ota-onalarini tarbiyaviy o‘rni katta. Ushbu harflarni noto‘g‘ri talaffuz qilish jarayniga befarq bo‘lmagan holda vaqtida bola bilan shug‘ullanish u bilan do‘sti kabi muloqotni yo‘lga qo‘yish kerak.

Maktab yoshidagi bolalarning o‘zish jarayonida o‘yinlar ham yetakchi ahamiyat kasb etadi. O‘yin mazmuning rivojlanishi bolaning kattalar hayotida va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishida, atrof-dagi voqealarga munosabatini o‘zgartirishida, shuningdek, o‘rin mazmuni hamda syujeti ijtimoiy shart-sharoiti va jamiyat a‘zolari turmushining tobora to‘g‘ri aks ettirishida ko‘rinadi. Shuning uchun bolalarda rolli o‘yinlar qobiliyatining o‘shishi o‘z-o‘zicha yuzaga kelmaydi, balki kattalarning, tarbiyachilarning ta‘siri natijasi, atrof-muhit bilan tanishish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushunish va hakazolar natijasida amalga oshadi.

Bolalarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish orqali o‘yin syujetlarining ko‘lamini rejali kengaytirish mumkin. Ontogenez psixologiyasi fanida qat‘iy ifodalanganidek, bola bog‘chaga kelganda uning o‘yin syujeti faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, sayrlarga olib borish, tabiat kuzatish natijasida o‘yinning turlari ko‘payib boradi bog‘cha, hayvonot bog‘i, oshxona, poyezd, paroxod, sartarosh, sotuvchi kabi o‘yinlar qo‘shiladi. Bolaning yoshi ulg‘aya

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

borishi bilan o‘yinning, muddati ham uzaymagan. Mazkur jarayonni tadqiq qilgan AP.Usovaning dagligasti bold yoshli bolalarning faoliyati 10-15 daqiqada yoshi: bolalarning o‘yin faoliyati 40 daqiqa, katta maktabgacha yoshidagilarning o‘yin faoliyati bir necha soatgacha cho‘zilishi mumkin. Hatto, bir turdagi o‘yinlarning syujetlari butun kun bo‘yi, qolaversa, undan ham ortiq vaqt davom etadi. Bu hol bola o‘yin faoliyati jarayonida hayot faoliyatning u yoki bu qirrasini muhim jihatini alohida ifodalab ijro etadi, deyishga hech qanday asos bo‘la olinaydi. Chunki psixologiya fanida hozirgacha to‘plangan ilmiy javob bera olmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o‘shishiga o‘yinning ta’siri haqida gap borganida avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o‘yinni tashkil qilishning o‘ziyoz mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o‘yinning bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini subyekt aynan o‘yin paytida emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi. Uchinchidan, o‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o‘yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta’minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o‘yin) subyekt (jonot) onginging dastlabki obyekt darajasiga o‘tib o‘tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo‘lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat’iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o‘yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi (A.V.Zaporojets).

Bola o‘yin faoliyatida maktab ta’limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o‘yin faoliyatida bolaning aqliy o‘shishini chuqurroq izohlab berish hali yetarli tajriba ma’lumotlari mavjud emas.

D.B.Elkonin o‘z tadqiqotida rolli o‘yinning syujeti bilan bir qatorda uning mazmuni ham mavjud ekanligini yozadi. Uning fikricha , o‘yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jihatini(tomonini) aniqlik aks ettirishi o‘yinning mazmunini tashkil qiladi. [1:421 bet]

L.S.Slavina to‘plagan ma’lumotlarga qaraganda maishiy turmushga aloqador bir xil syujetli o‘yin , maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyati qarab (kichik, o‘rta,katta)turlicha yo‘sinda amalga oshiriladi.[2:421bet]

Maktab yoshdagi bolalarni psixik rivojlanishi va hamda uning nutqiy faoliyat bilan bog‘liq masala bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarimni bayon etdim. Bolaning o‘shishiga, nutqiy faoliyatiga e’tiborsizlik qilmaslik, tabriyasiga befarq bo‘lmaslik darkor. Maktab yoshidagi bolaning psixik rivojlanishi bog‘cha yoshi davridagi o‘yinlar ularning o‘shish jarayonida uchrab turadigan nutq bilan bog‘liq muammoli vaziyat haqida ularni no‘to‘g‘ri talaffuz qilishga yo‘l qo‘ymaslik, tarbiya jarayoni ham bola hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toldirilgan ikkinch nashri. - Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2022. - 416 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son. 5. Davletshin M.G., Mavlonov 3. M.M.Tuychieva S.M. “Yoshlar va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2009 y.
- 4.M.X.Asranbayeva, D.D.Oribboyeva, D.D.Boymirzayeva “Tafakkur avlodi”,2023
5. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiyasi”. O‘z.FMJ., 2008 yil.
6. Klimov E.A. "Umumiy psixologiya". - Sankt-Peterburg, Pyotr, 2001 yil.
7. R.S. Psixologiya. M.: Vlado, 2003. 1-2 jildlar.
8. Radugina A.A. Pedagogika va psixologiya. M., 2007 yil.
9. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. Sankt-Peterburg: Pyotr, 2007 yil.
10. G‘oziyev E.G. Mamatov M.M. va boshqalar "O‘spirin psixologiyasi" Tosh D.U. 1992